

## **BUGUNGU KUNDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TA’LIM JARAYONIDA QO’LLANILISHI**

**Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti dekani yu. f. d., prof. Madumarov Talantbek Tolibjonovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungu kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llanilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, texnologiya, fan, ta’lim, mahorat, kreativlik, o’qitish qonuniyatlari, prinsiplar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование инновационных педагогических технологий в образовательном процессе сегодня.

**Ключевые слова:** инновации, технологии, наука, образование, навыки, творчество, принципы обучения, принципы.

**Abstract:** This article discusses the use of innovative pedagogical technologies in the educational process today.

**Key words:** innovation, technology, science, education, skills, creativity, teaching principles, principles.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llashga bo’lgan talablar kundan kunga kuchayib bormoqda. Bu esa ta’lim jarayonida o’quvchi-talabalarni dars jarayonida o’tilayotgan mavzuga qiziqishni muayyan darajada oshiradi. Eng asosiysi o’quvchi-talabalarni nutq qobiliyatini shakllantirishga va rivojlantirishga, ularda yangi g’oyalar paydo bo’lishiga olib keladi. Shuningdek, o’z bilimiga ishonch uyg’otadi. O’quvchi-talabalar dars jarayonida faol ishtirok etadi, o’z fikrini erkin bildiradi, tinglash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Professor - o’qituvchi bu jarayonda talaba shaxsning shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga imkon yaratadi.

Professor -o’qituvchi – pedagogik va psixologik nuqtai nazardan o’z ixtisosligi yo’nalishlari bo’yicha ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatuvchi birinchi darajali shaxs xisoblanadi. Professor -o’qituvchi o’qitish shakllarida, dars jarayonlarida foydalaniladigan o’qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy erkin qo’llashda, ilmiy –nazariy bilishga doir g’oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tadbiq etishdek, muhim dolzarb masuliyatli vazifani bajaradi.

Professor -o’qituvchi o’quv va dars jarayonida o’quvchi-talabalarga shaxs sifatida qarashni turli innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullar, uslublarning qo’llanilishi talabalarni, o’quvchilarni mustaqil, ravon, erkin fikrlashlariga, izlanishlariga, ijod qilishlariga, jumladan, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas’uliyatli bo’lish, ilmiy-ijodiy tadqiqotlar olib borish, ularni tahlil qilish, ilmiy-badiiy adabiyotlardan samarali foydalanishga, eng muhimi o’qishga, fanlarga va o’zi ixtiyoriy tanlagan kasbiga bo’lgan qiziqish va istaklarini hamda pedagogga nisbatan o’zaro hurmatni kuchaytiradi. Bunday ma’suliyatli dolzarb vazifalarni amalga oshirishda interfaol pedagogik usullar va yangi pedagogik texnologiyalar juda qo’l kelishini keyingi davrlarda ta’lim tizimidagi qilinayotgan pedagogik ishlar yorqin isbotlamoqda. Ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan Professor -o’qituvchi o’z sohalari bo’yicha olib borayotgan dars va darsdan tashqari mashg’ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni o’z o’rnida o’rinli

qo‘llashni bilishlari o‘ta muhim zaruratdir. Ayniqsa mutaxassilik fanlarini o‘qitish jarayonida interfaol pedagogik metodlar va vositalar qo‘llashni keng joriy qilishimizni xayotni o‘zi taqazo qilib kelmoqda. Interfaol pedagogik metodlarning qo‘llashning afzalliklari murakkab mavzularda ma’lumotlarni tushunarli qilib berish, talabalarda o‘zlashtirish jarayonini osonlashtirish va ularni o‘quv jarayonida faollashtirishni qamrab oladi.

Pedagogik innovatsion ta’limning asosiy maqsadi talabalarda kelajakka ta’lim sohasida ro‘y berayotgan tub yangilanishlar va pedagogik innovatsiyalar har bir ta’lim muassasasida o‘quv jarayoni metodik ta’minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai xisoblanadi.

O‘quvchi-talabalar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta’limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta’lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi fan sohasini axborotlashtirishga, o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishga, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga, ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keldi.

Bugungi davrda talabalarni ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi ta’lim jarayonida pedagogik interfaol usullaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Shunday ekan bugungi kun pedagoglari, professor - o‘qituvchilari ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarga ijodiy yondashuv bilan yondashishlari talab etilmoqga.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mavlonova R. N.H.Vohidova, N.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasiva tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010 yil
2. Xoshimov K., S.Ochilov.O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T.:O‘qit. 2010 yil
3. R.A.Mavlonova, N.X.Voxidova,Ijtimoiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T. Noshir 2009 yil